

SULTON HUSAYN HUKMRONLIGI DAVRIDA TIBBIYOT

Annotatsiya. Ushbu maqola Temuriylar sulolasi davrida, Sulton Husayn hukmronligi ostida tibbiyotning gullab-yashnashi jarayonini o'rganadi. Unda Sultonning olimlar va tabiblarga ko'rsatgan homiyliigi, turli tibbiyot maktablari va markazlarining tashkil etilishiga olib kelgani ta'kidlanadi. Maqolada Mufrad Qalandarning davosi kabi o'ziga xos holatlarga ham to'xtalib, ilg'or jarrohlik texnikalari va jarohatlarni yopish uchun chumoli jag'lari kabi tabiiy materiallardan foydalanishga misollar keltiriladi. Shuningdek, unda singanlarni gipsga o'xshash moddalar bilan davolash va zaharlanishga qarshi vositalarning mavjudligi haqida ham so'z yuritiladi. Maqola xulosasida ushbu davrda sog'liqni saqlash sohasini rivojlantirishda fan va madaniyatning uyg'unlashuviga urg'u berilib, bu holat tibbiy amaliyot va etikaga doimiy ta'sir ko'rsatganligi qayd etiladi.

Kalit so'zlar: Sulton Husayn, Temuriylar davri, Tibbiyot, Jarrohlik, Gips, Zaharlanish, Tabiblar, Shifoxonalar, Tibbiy ta'lim, Tibbiy etika.

МЕДИЦИНА ВО ВРЕМЕНА ПРАВЛЕНИЯ СУЛТАНА ХУСЕЙНА

Аннотация. В данной статье рассматривается расцвет медицины в период правления Султана Хусейна из династии Тимуридов. Подчеркивается покровительство Султана ученым и врачам, что привело к созданию разнообразных медицинских школ и центров. Статья углубляется в конкретные случаи, такие как лечение Муфрда Каландара, демонстрируя передовые хирургические методы и использование натуральных материалов, таких как челюсти муравьев, для закрытия ран. Также затрагивается лечение переломов с использованием гипсоподобных веществ и наличие противоядий от отравлений. В заключение статьи подчеркивается интеграция науки и культуры в продвижении здравоохранения в этот период, оставившая долгосрочное наследие в медицинской практике и этике.

Ключевые слова: Султан Хусейн, Эпоха Тимуридов, Медицина, Хирургия, Гипс, Отравление, Врачи, Больницы, Медицинское образование, Медицинская этика.

MEDICINE DURING THE REIGN OF SULTAN HUSAYN

Abstract. This article explores the flourishing of medicine during the reign of Sultan Husayn of the Timurid dynasty. It highlights the Sultan's patronage of scholars and physicians, leading to the establishment of diverse medical schools and centers. The article delves into specific cases like the treatment of Mufrad Qalandar, showcasing advanced surgical techniques and the use of natural materials like ant jaws for wound closure. It also touches on the treatment of fractures using plaster-like substances and the availability of antidotes for poisoning. The article concludes by emphasizing the integration of science and culture in advancing healthcare during this period, leaving a lasting legacy on medical practices and ethics.

Key words: Sultan Husayn, Timurid era, Medicine, Surgery, Plaster, Poisoning, Physicians, Hospitals, Medical education, Medical ethics.

Kirish. Temur avlodi Sulton Husayn hukmronligi davrida tibbiyot madaniyat va ilm-fanning ajralmas qismiga aylanib, sezilarli darajada gullab-yashnagan. Husayn san'at va bilimlarning homiysi sifatida olimlar va shifokorlar uchun qo'llab-quvvatlovchi muhit yaratdi, natijada rang-barang tibbiyot maktablari va markazlari paydo bo'ldi. Sulton Husayn nafaqat tibbiyotga homiylik qildi, balki o'sha davrning eng yaxshi asarlari to'plangan kutubxonalar va ilmiy markazlarni yaratishni ham nazorat qildi. Bu tadqiqotchilar tajriba va ilmiy kashfiyotlar almashishlari mumkin bo'lgan yagona ilmiy tizimni yaratish uchun asos bo'ldi. Bunday sharoitda tibbiyot nafaqat fan sifatida rivojlandi, balki ijtimoiy ahamiyatga ega bo'ldi, bu esa shifokorlarning jamiyatdagi mavqeini oshirishga yordam berdi. Fikrimizni asoslash uchun manbalarda kelgan ma'lumotlarni tahlil qilsak.

Asosiy qism. Zayniddin Vosifiy hikoya qilishicha, Bog'doddan Mufrad Qalandar ismli qalandar dubulg'a shaklida boshida qalpoq, ichiga kumush qo'yilgan tayoq va yamoqlarga to'la namad to'ni bilan Hirotga keladi. U Hirot xiyoboni boshiga kelib ovoz qildi: "Hirotning besh darvozasi va to'qqiz bulugining pahlavonlari, yatimu nahanglarini chorlayman! Shu cho'pga kim kelsa, agari Rustami Doston, Somi Narimon va Isfandiyori To'yintan bo'lsa ham u bilan jang qilaman" [1.114]. Buning xabari Sulton Husayn Mirzoga yetgach Mufrad qalandarni suhbatga chaqiradi. Uning fasohatli javoblari Sultonga yoqib uni yonida olib qoladi.

Xuroson amaldorlaridan alamdorning pahlavonlikda mashhur o'g'li bor edi, uni jang qilishga g'ij-gijlashgach, u kelib Sultonga jang qilish niyatini aytadi. Mo'min Mirzoning ko'shki oldida Bog'i Zag'onda jang belgilanadi. Cho'p jangida Alamdorning o'g'li yengiladi. Xaloyiq baqir-chaqirig'i ostida Qalandar boshi uzra tabaqda oltin sochiladi. Feruzobod darvozasi yaqinida Haydar ismli pahlavon bor edi, u kaltak, hanjar, pichoq ishlatishda usta edi, Qalandar bilan bo'lgan jangda Haydar yengiladi, o'rtaga Sulton tushishigina Haydarni jonini saqlab qoladi. Bu kabi janglar xaloyiq orasida juda tez mashhur bo'ladi, Xuroson pahlavonlari bu holatni sharmandalik deb qabul qiladilar. Hirotida yana bir pahlavon Amir Xalil Mufrad qalandar bilan cho'p janggi qilmoqchi bo'ladi. Lekin tashqariga chiqilganda Amir Xalilning odamlari Mufrad Qalandarni o'rtaga olib, 18 joyiga pichoq va xanjar bilan jarohat yetkazadilar. Bu xabar Sulton Husaynga yetib kelgach qahrlandi, Mirxalilni qayerda ko'rsangiz so'rab o'tirmasdan o'ldiring deb farmon chiqaradi. Mufrad Qalandarning qorni ochilib ichagi chiqib qolgan va yirtilgan joylari ham bo'lgan. Jarrohlarni yig'ilib, Mufrad pahlavonni davolashga kirishadilar. Sulton Husayn "Agar shuni davolay olsanglar, nima murodlaringiz bo'lsa hosil qilurman! Xazinamdan sizlar uchun in'om muyassar bo'lgusi!", - deydi. Muhim jihati shundaki, hamma jarrohlarni birdek: "Iloji bor", - deyishdi" deb xulosa berishganidir [1.116]. Bu holatdan, o'n sakkiz marta jarohatlangan bo'lsa ham, tabiblar davolab bo'ladi deyishgani bu kabi jarohatlarni davolashning imkoni bo'lganligi ayon bo'ladi. Tabiblar: "Uning ichagi kesilgan uni tikib bo'lmaydi", - deyishdi. Demak, tikish, ya'ni jarrohlikda ip bilan tikish usuli bo'lgan. Manbada keltirilishicha: Mirzo buyurdi: "Ustod Shayx Husayn jarrohnini topib kelinglar!" Shohim u bemor yotibdi, dedilar. Podshoning buyrug'i bilan uni taxtiravonda olib kelishdi. Mirzo dedi: "Ey ustod! Agar shu odamni shifolasangiz, nima murodu-maqsudingiz bo'lsa bajarurman!" U suvarak mo'rchasidanki, mo'rchai sulaymoniy (ot qorinchasi) ham deyilar, bir qanchasini topib kelishni so'radi-hozir qildilar. U kesilgan ichakning ikki uchini bir-biriga yopishtirib, bir mo'rcha og'zini ichaklar yopishtirilgan joyga tutdi. Mo'rcha yaraga nish urib, tishlagan zahoti uning boshini kesdilar. Boshqasini uning yonidan shunday qo'yib, kallasidan judo qilaverdilar. Shu yo'l bilan kesilgan ichak atrofini tikib chiqdilar, qorniga solib, qornini tikib qo'ydilar. Keyin davolay boshladilar qirq kun ichida Mufrad Qalandar tuzalib chiqadi" [1.116]. Manbada ichakni tikib qoriga solib, qornini tikib qo'yishgani yozilmoqda, o'ylab qaralsa jarrohlik amaliyoti bajarilgani ko'rinib turibdi.

Chumoli bilan davolash qadimiy usul bo'lib, miloddan avvalgi ming yillikda ham qo'llanilgani ma'lum. Hind jarrohi Charaka Samhita keng jag'li chumolilar bilan inson yaralarida jarohlik amaliyot olib borganligini yozib qoldirgan. Unda ham xuddi shunday qilib chumoliga yara tishlatilib, boshi uzib tashlanganligi keltirilib o'tiladi. Bu kabi chumolilarning jag' qismi 7 mm ga bo'lib ancha kuchli hisoblangan, shu sababli, manbada "*murchai sulaymoniy*" deb berilmoqda. Xuddi shu hind jarrohi ot yoli, paxta ipi, hayvonlarning paylari, daraxtdan olingan tolalar jarrohlikda tikish uchun ishlatilganligini qayd etib o'tgan.

Mufrad Qalandar tuzalgach Amir Halilni kechirishni iltimos qiladi. Sulton Husayn uni kechirib, yarashtirib qo'ymoqchi bo'ladi. Jang qilish fikri Amir Halilni tark etmagani uchun avval jang qilishni taklif qiladi. Jang Bog'i Shamol chorbo-g'ida belgilanadi. Jangda qanchalik harakat qilmasin Amir Halilni omadi chopmadi. Mufrad uning tayog'iga chap berib oyog'ini mo'ljalga oladi [1.117]. U tiz cho'kib qolib, oyoq suyaklari sinib ketadi. Boshida aytganimizdek, Qalandarning cho'pini ichiga uch man qo'rg'oshin qo'yilgan edi. Bu zarba aslida qanchalik kuchli ekanligiga ham bog'liq. Ustod Zayniddin shikasta bandni keltirdilar. Uning ta'rifi keltirilganda podshoning xotinlaridan birining tos suyagi chiqadi. Podsho buning suyagini joyiga solish kerak dedi. Unga qo'l tekkiza olmasligi sababli ko'p o'ylab turib: "Bir ho'kizni ivitilgan non bilan uch kun boqish kerak. Suv berilmasin. Uch kun o'tgach, ho'kiz beliga yostiq qo'yib, o'sha xotinni mindiringlar, oyoqlarini ikki uchini ho'kizning qorni ostidan bir-biriga tortib bog'langlar. Keyin katta tog'arada suv to'ldirib ho'kizning oldiga qo'yinglar, Ho'kiz ichgan sari qorni ko'tarila boshlaydi. Keyin "qars" etgan tovush eshilib, suyak o'z o'rniga tushadi [1.118]. Podsho dedi: "Bu sayyidzoda beaqlik qildi. Manavi qalandar bilan jang qilib, o'z oyog'ini ishdan chiqardi. Shuni tuzatish lozim. "*Shikasta band*" atamasi – siniqchi so'zi bilan bir xil bo'lib, bu kasb egasi hozirda "*travmatolog*" deb atalib, alohida tibbiyot yo'nalishi sifatida keng tarqalgan yo'nalishlardan biridir. Yerdan tizza bo'yicha chuqur qazib, ganch topib keltirdilar va suvga qordilar. Tabib Mirxalilni oyog'ini chuqurga solib qo'li bilan

suyaklarni yon-beriga aylantirib tartibga solib chiqdi. Singan qismidan ikki bo'g'uncha keladigan joyiga qadar ganch loyidan to'kdi. Tuzalgach oyogini ganchdan bo'shatdilar. Hozir bizda mashhur bo'lgan "gips qilish usuli" ancha qadimiy ildizlarga borib taqaladi. Gipsni singan a'zolari davolash uchun ishlatish 1825-yilda D.Larri ishlatgan deb hisoblanadi. 1851-yilda golland jarrohi A.Mathysen latta bog'lama ustidan quruq gips ishlatgan. Rus tarixchilari 1847-yilda jarroh Nikolay Ivanov Kavkaz janglari vaqtida gips bog'lamani ishlatganligi tarixiy manbalardan ma'lum [2.86-96]. Demak, gipsli bog'lama Markaziy Osiyo tarixida ganch orqali amalga oshirilgan va amaliyot ildizlari ancha qadimiy hisoblanadi.

Sulton Husaynning vazirlaridan biri Xoja Majiddinning musodara mollari orasidan zaharga qarshi dorilar ham bo'lgan [3.819]. Demak zaharga qarshi dorining qimmat ekanligi va buning manbada alohida eslatib o'tilganligini inobatga olsak tibbiyot zaharlanishni davolay olganligini bilamiz.

Xondamirning Alisher Navoiyning umrining so'nggi lahzalarini yoritishida tibbiyotga xos jihatlarni ko'ramiz. Mir Alisher bir guruh hamrohligida Sulton Husaynni kutib olishga chiqadi. Raboti Poyob manzilida hazratning tomir urushi va sakta¹ alomatlari sezilib, tabobat ilmidan xabardor kishilar kasallik sog'ayishi uchun shu yerdayoq bemordan qon olinishi lozim deydi.

Biroq Mavluni Tusiy mazkur tibbiy amaliyotga qarshi bo'lgan. U Hirotga tashrif buyurib bir guruh shifokorlar bilan mazkur holat yuzasidan maslahatlashishni ma'qul deb hisoblagan. Shifokorlarning o'zaro maslahatlashuvi xato muolajaning oldini olishi kerak edi. Tahlillar, Mavluni Tusiy yuqori martabali shaxsni davolashdek katta mas'uliyatni zimmasiga olmasdan xavfsiraganligini ham ko'rsatmoqda. Xoja Shaxobiddin Abdulloh bu fikrni to'g'ri sanab, mahofaga (zambil) yotqizib yo'l sari yuzlanganda, Xondamir darhol qon olish kerak deb turib olgach, Sulton Husayn Mirzo oldiga chopar yuboriladi. Husayn Bayqaro Xondamir aytganicha qilib, bemor tomiridan darhol qon olinsin deb buyruq beradi. Ammo chopar borib qaytguncha, vaqt qo'ldan boy berilganini, Xondamir afsus bilan yozadi [3.819]. Keyin qon olsalar ham qon deyarli chiqmaydi va Amir Alisherbek vafot etadi.

Xondamirning yozishicha Mavlono Nizomiddin Abdulhay tabib Alisher Navoiyning shifoxonasida faoliyat ko'rsatadi, Xoja Ubaydulloh Ahror Samarqandda kasallanib tabib so'rab Hirotga xat yozganlarida Xo'jani davolash uchun Samarqand shahriga kelib ketadi. Hirotga qaytib, katta hurmat-izzatda yashaydi [3:1085].

Mavlono Masihuddin Habibulloh to'g'risidagi ma'lumotlarda, mashhur tabib Aziaddin Husaynning ukasi deb ta'rif beriladi. Demak, mashhur tabiblar shajarasi shakllangan va yillar davomida yig'ilgan tibbiy bilim va ko'nikma, hamda tajriba boyitilgan holda avloddan-avlodga o'tqazilgan. Ushbu tabib mansab va boyligi ko'p bo'lishiga qaramay, fuqaro va miskinlarning uylariga tashrif buyirib, ularni ko'ngilli tarzda tekinga davolagan. Darvesh va muhtojlarga ham homiylik qilgan [3.1088].

Sulton Husayn davrida tibbiyot sohasida erishilgan yutuqlar ilm-fan va madaniyatni birlashtirish yo'lidagi muhim qadam bo'lib, mintaqada salomatlik va farovonlik g'oyasini shakllantirdi. Uning hukmronligi davrida inson tanasi va kasalliklari haqidagi bilimlar chuqurlashdi, nafaqat tashxis aniqligini oshirishga, balki ilmiy dalillarga asoslangan yangi davolash usullarini ishlab chiqishga imkon berdi. Shunday qilib, hozirgi vaqt tibbiyot amaliyotini o'zgartirib, kelajakda ushbu fanni yanada rivojlantirish uchun asos yaratildi. Bundan tashqari, tibbiy ta'limni rivojlantirish ustuvor vazifalardan biriga aylandi. Tibbiy amaliyot bilan birga shifoxonalarining tashkil etilishi yosh mutaxassislarining tajribali ustalardan bilim olishiga olib keldi. Shifo maskanlari, ya'ni, shifoxonalar kabi muassasalarda talabalar nafaqat tibbiyotni, balki davolash falsafasi, axloqi va ijtimoiy jihatlarini ham o'rganishdi. Shunday qilib, ushbu davr merosi asrlar davomida tibbiyotning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatdi va zamonaviy ilmiy fanlarning asoslarini yaratildi.

Xulosa. Tibbiy kashfiyotlar bilan bir qatorda, shifokor va bemorning munosabatlarini tartibga soluvchi axloqiy me'yorlar rivojlandi. Ushbu davr merosi tibbiyot va sog'liqni saqlashning keyingi yutuqlari uchun asos bo'ldi. O'rnatilgan bilim va tamoyillar zamonaviy tibbiyot amaliyotiga ta'sir ko'rsatishda davom etmoqda, tibbiy etika va kasbiy tayyorgarlikning asosiy jihatlarini shakllantiradi [4.134-136].

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar Sulton Husayn davrida tibbiyot sohasida sezilarli yutuqlarga erishilganini tasdiqlaydi. Bu yutuqlar nafaqat o'sha davr uchun, balki keyingi davrlar tibbiyotining rivojlanishi uchun ham muhim zamin yaratgan. Biroq, tarixiy manbalarda keltirilgan ma'lumotlarni tahlil qilishda ularning –tarixiy-badiiy asarlardan olinganligi va muallifning subyektiv qarashlari ta'sir qilgan bo'lishi mumkinligini yodda tutish lozim.

¹ Sakta – yurak xuruji, infarkt kasalligi

Foydalanilgan adabiyot va manbalar

1. Zayniddin Mahmud Vosifiy. Badoe'ul vaqoe'. / Fors tilidan Naim Norqulov tarjimasi. – Toshkent: "G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti", 1979. – 213 b.
2. Аверьянов М.Ю., Смирнов В. П. Гипсовые повязки. // Повязки в лечебной практике. – М.: Академия, 2010. – С. 127.
3. Гиёсиддин ибн Хумомиддин Хондамир Ҳабиб ус-сийар фи ахбори афроди башар. – Тошкент: "O'zbekiston", 2013.
4. Özden Erdoğan. Conception of Political Power and The Timurid Cultural Achievements During the Reign of Sultan Husayn Bayqara. 2023. p – 134-136.